



KASBIY PSIXOLOGIYANING ASOSIY METODLARI

*Dumarova Gulfira Kozimbekovna,
Abdusalomova Madinaxon Quadratjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy psixologiyaning asosiy metodlari, shaxsdagi kasbiy psixologik sifatlarni shakllantirish, ularni kasbga tayyorlash jarayonlardagi ahamiyati hamda o‘rin yoritib berilgan. Ushbu maqolada bilim berish metodlari haqida emas, balki fan uchun, uning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni to‘plashdagi qo‘llaniladigan tadqiqot metodlari haqida so‘z boradi.

Аннотация: В статье описаны основные методы профессиональной психологии, значение и место формирования профессиональных психологических качеств человека, его подготовка к профессии. Эта статья не о методах передачи знаний, а о методах исследования, используемых при сборе информации, необходимой для науки и ее развития.

Abstract: This article describes the main methods of professional psychology, the importance and place of formation of professional psychological qualities in a person, their preparation for the profession. This article is not about the methods of imparting knowledge, but about the research methods used in collecting the information necessary for science and its development.

Kasb psixologiyasi o‘zida juda ko‘plab masalalarni qamrab olgan va jamiyatda yoshlarni kasb tanlashlariga o‘z yordamini beruvchi fan hisoblanadi. Bu sohada ko‘plab insonlar hozirgacha o‘z xizmatlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Bulardan eng asosiysi o‘qituvchi hisoblanadi. Bolalar bilan har doim muloqotda bo‘lgan o‘qituvchilar ularning havaslari, qiziqishlari va manfaatlarini bilib borib ularni ma‘lum bir kasbni egallashlariga o‘z tavsiyalarini berib, ularni kasblarga yo‘naltirib turadilar. Hozirda esa maktab psixologlari olib borayotgan amaliy ishlar natijasida bolalar o‘zlari qiziqqan kasblarini egallashga va unga tayyorgarlik ko‘rishga intilib boradilar. Ushbu o‘quv qo‘llanma kasb tanlash sohasidagi amaliy ishlarga yordam sifatida shakllandi. Unga bo‘lgan qiziqish o‘sib bormoqda. Jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan fanlar qatoriga kirib bormoqda.

Insoniyat paydo bo‘libdiki, u har doim o‘zini boqishga, ehtiyojlarini va manfaatlarini qondirishga harakat qilgan va hozirda ham shu yo‘ldan bormoqda. Inson o‘z ehtiyojlarini eng avvalo oziq - ovqat, boshpana, kiyim - kechaklarga



bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdan boshlagan. Keyinchalik yangi sivilizatsiyalar paydo bo'lgach, ya'ni insoniyat madaniylashib borgan sari o'z ehtiyojlariga kerak bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqara boshlagan. Bular eng avvalo shu sohadagi kasb egalarini paydo bo'lishiga va jamiyatni shu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga intilishlarini paydo qilgan. Jamiyat rivojlana borgan sari yangi kasblar paydo bo'lgan va rivojlanib borgan. Insonlar esa yaxshi va baxtli yashashga intilganlar. Buning uchun kasb tanlaganlar, tajriba oshirganlar va bilimlarini to'plaganlar. Kasb - inson ish faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir. Kasbga umumiy yoki maxsus ma'lumot hamda amaliy tajriba yo'li bilan erishiladi. Kasb ichida mehnat faoliyatining eng tor xarakteri bilan ajralib turuvchi ixtisoslari bor. Ba'zi kasblarda bir qancha ixtisoslar masalan: chilangar kasbida - remontchi chilangar, asbobsoz chilangar, yig'uvchi chilangar kabi yo'nalishlar mavjud. Demak, har bir kasbga xos bo'lgan yo'nalishlar mavjud bo'ladi. Bu esa inson faoliyatini kengayib borayotganligini, har bir sohani o'ziga xos tor jabhalari borligini tasdiqlaydi. Hayotiy jarayonlar kasblarni doimiy emasligini ko'rsatadi. Kasblarni ayrimlari paydo bo'ladi ayrimlari yo'q bo'lib ketar ekan. Bu kasblarni ayrimlari texnika va texnologiya sohalarini taraqqiyoti bilan bog'liq holda takomillashib boradi, yangi ko'rinishga ega bo'lgan kasblarni paydo qiladi, eskilarini yanada takomillashtiradi. Misol uchun hozirgi zamon to'quvchisining ishini ilgari zamondagi to'quvchi mehnati bilan taqqoslab bo'lmaydi. Hozirda to'quvchi stanoklarni avtomatlashganligi tufayli bir qancha to'quv stanoklarini bir vaqtda boshqaradi. Albatta bu jarayonlarni taqqoslab bo'lmaydi, ulardagi mehnat sharoiti, stanoklarni boshqarishga va to'qishga bog'liq bo'lgan yangi bilimlar tizimi va shu kabilar ularning farqini ko'rsatib turadi.

Izlanuvchi yoshlar kasb - hunar va uni egallash, hayotlarini, kelajaklarini hal qiluvchi omil ekanligini bilib boradilar. Shulardan kelib chiqib kasb - bu inson hayoti uchun zarur bo'lgan, jamiyatdagi huquqiy normalarga javob beradigan, insonni kelajagini belgilab beradigan o'ziga xos murakkab bo'lgan jarayon deb belgilashimiz mumkin. Kasb - bu insonni ma'lum bir ehtiyojlarini va manfaatlarini o'zi tanlagan kasb faoliyatidagi bilimlari, layoqati, malakalariga xos xususiyatlari orqali namoyon bo'lishidir. Kasbga xos bo'lgan jarayonlar, ularni egallash, tanlash inson psixologiyasi bilan bog'liq. Kasb psixologiyasi aynan shunday murakkab jarayonlarni o'rganish orqali yoshlarni o'zlari qiziqqan kasbga yo'nalish beruvchi murakkab fan hisoblanadi. Har bir kasbning o'ziga xos bo'lgan tomonlari, insonlarni o'ziga jalb qila oladigan qirralari mavjud bo'lib, inson bu jarayonlarni kuzatib borib



shu kasbni egallashga intiladi. Bu jarayonlarda inson o'zini ruhiyati bilan shu kasbga xos bo'lgan psixologik tomonlari ham shakllantirib boradi.

Metod so'zi – yunoncha metodos bo'lib tadqiqot, tekshirish degan ma'noni beradi. Nazarimizda yuqoridagilarga yana yo'l, usul so'zlarini ham kiritish mumkin. Metodlar tadqiqot ishlarida ham, bilim berishda ham qo'llaniladi. Psixologiya fanining empirik (amaliy) metodlari turkumidan muhim o'rin egallagan, diagnostik xususiyatli metodlardan biri – kuzatish metodidir. Mazkur metod fanimizning eng qadimgi zamonidan boshlab to hozirgi davrgacha ilmiy izlanuvchilarning asosiy tekshiruv qurollaridan biri bo'lib, keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda. Lekin bugungi kunda uning ob'ekti, ko'lami yanada kengaydi, murakkab psixologik jarayonlar, holatlar, hodisalar, kechinmalar, faoliyat va muomala xususiyatlarini o'rganish imkoniyati tug'ildi, sifat hamda mazmun jihatidan katta o'zgarishlar yuzaga keldi.

Hozirgi zamon kasbiy psixologiya fanining asosiy printsiplari, kategoriyalari va ilmiy tadqiqot usullari 1923 yilda Psixonevrologlarning birinchi syezdida K.N.Kornilov (1879–1957) psixologiyani dialektika negizida tuzish masalasini ilgari surdi. Psixologlarning psixologiyani dialektik materializm negizida tuzish uchun olib borgan kurashining natijasi hisoblangan g'oyaviy-nazariy kurash jarayonida psixologiya predmeti va uning metodlari haqidagi ilmiy tushunchalar tarkib topdi, psixologik tadqiqotlarning eng muhim printsiplari va asosiy muammolari aniqlab olindi, bilimning turdosh sohalariga munosabat oydinlashdi. Psixologiya fanining taraqqiyotida buyuk o'rin tutgan B. G. Anan'ev, P. P. Blonskiy, L. S. Vigotskiy, A. V. Zaporozhets, K. N. Kornilov, G. S. Kostyuk, A. N. Leontev, A. R. Luriya, S. A. Rubinshteyn, A. A. Smirnov, B. M. Teplov, D. N. Uznadzeva boshqa olimlar etishib chiqdi. Psixologiya psixik jarayonlarni, shaxsning individual – tipologik xususiyatlarini o'rganar ekan, tekshirishning muayyan metodlarini o'rgatadi. Psixologiyada tekshirish metodlari obyektiv bo'lmog'i lozim. Insonning ish harakatlari va xatti-harakatlarini tekshirish asosidagina uning niyatlari, fikrlari va hissiyotlari haqida to'g'ri ma'lumot olish mumkin.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, inson ruhiyatini o'rganish yuqorida bayon qilingan metodlardan tashqari yana ayrim qo'shimcha metodlardan ham foydalaniladi. E'tirof etish joizki, qo'llanilayotgan har bir metodning o'ziga xos ijobiy, afzal tomonlari bilan birgalikda qiyin va salbiy tomonlari ham mavjud. Shu bois konkret shaxs ruhiyatini o'rganish vaqtida yakka metodlar natijalari bilan kifoyalanib qolish mumkin emas. Ruhiyatni tekshirishda atroflilik, dinamiklik, obyektivlik,



tekshiruvchining yosh xususiyatlarini inobatga olish va boshqa tamoillarga suyanish darkor. Shundagina shaxs haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Abu Nasr Forobiy Fozil odamlar shahri.: - T., 1993.
2. AbdullaAvloniy. Turkiy guliston yoxud ahloq.: -Toshkent: O'zbekiston, 1992.
3. Зеер Е. Психология профессионального образование уч.пос. для студентов.: - М., 2006.
4. Климов Э.А. Психология профессионального самоопределения.: -Ростов, Н/Д: 1996.
5. Abduraxmonov F.R., Abduraxmonova Z.E. Kasb psixologiyasi (o'quv qo'llanma).: -T.:P TTESI., 2017.
6. Voronsov VI. Tafakkur gulshani.: - T., Gc.G'ulom, 1981.155 -159 b.